

Zamonaviy monitorlar

Innovatsion g'oyalar va texnologiyalar zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashgandagina taraqqiyotning mohiyati teranlashadi.

Institutimiz rektorining tashabbuslari bilan barcha fakultetlari o'quv binolari kirish qismi foyesida zamonaviy monitorlar o'rnatish yo'liga qo'yildi. Bu ish birinchilardan bo'lib, "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti binosida amalga oshirildi.

Uning afzalligi shundaki, unda har bir tashrif buyurgan mehmonlar hamda talabalar fakultetning ta'lim yo'nalishlari, o'quv jarayonlariga oid xabarlar, kafedralar faoliyatiga oid yangiliklar bilan tanishib borish imkoniyati bo'ladi.

Shu bilan birga fakultetning iqtidorli talabalari tomonidan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ham yoritib borish imkonи tug'iladi. Bu tashabbus talabalar va professor-o'qituvchilar tomonidan qizg'in qarshi olindi.



"Iqtisodiyot va menejment" fakulteti talabalar kengashi sardori Jahongir Saidahmedov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov